

# “Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosi – zamonaviy ilm-fan ko’zglasida” mavzusida davra suhbatini o’tkazildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik institutida “Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosi – zamonaviy ilm-fan ko’zglasida” mavzusida ilmiy davra suhbatini o’tkazildi.



Institutning Yosh olimlari kengashi tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu tadbir buyuk ajdodlarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlariga bag’ishlandi. Taniqli navoiyshunoslar, san’atshunoslar hamda yosh olimlar ishtirokida o’tgan davra suhbatida o’zbek adabiyotining ikki buyuk namoyandasi yaratgan ilmiy-ijodiy merosning zamonaviy badiiy madaniyatimizda tutgan o’rni, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati muhokama qilindi.

Tadbir davomida taniqli navoiyshunos Ibrohim Haqqulning “Navoiy va Bobur adabiy tafakkurining jamiyat

ma'naviy kamolotidagi o'rni", yetakchi san'atshunoslar – Eldor Muxtorovning "Alisher Navoiyning "Qush tili" dostoni teatr sahnasida", Oqilxon Ibrohimovning "Navoiy, Bobur va maqom san'ati" mavzularidagi ma'ruzalari tinglandi. Ma'ruzalar bo'yicha qizg'in muhokamalar, savol-javoblar bo'lib o'tdi.

Ushbu davra suhbatini yosh tadqiqotchilar uchun Navoiy va Bobur ijodiy merosini yanada chuqur anglash, kelgusida bu yo'nalishda tadqiqotlar amalga oshirishlari uchun xizmat qiladi.